



ESG TAMOYILLARINING KORXONALARNING UZOQ MUDDATLI
BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Nuritdinov Bahtiyoriddin Salohiddinovich

"U-ENTER" innovatsion tadbirkorlik markazi

ORCID: 0009-0006-1958-2663

b.nuritdinov@u-enter.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola ESG tamoyillarining korxonalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashdagi o'rnnini o'rganishga bag'ishlanadi. ESG tamoyillari ekologik, ijtimoiy va boshqaruv sohalaridagi mas'uliyatlarni korxonalarning biznes faoliyatida amaliyotlarga tatbiq etish orqali nafaqat jamiyat va atrof-muhitga foyda keltirish, balki korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini va barqarorligini ham ta'minlashga yordam beradi. Maqolada ESG tamoyillarining asosiy elementlari, ularning korxonalarning iqtisodiy samaradorligi va obro'siga ta'siri hamda bu tamoyillarni muvaffaqiyatli amalgalashishiga qilinadi.

Kalit so'zlar: ESG tamoyillari, korxona, ekologik va ijtimoiy mas'uliyat, boshqaruv, barqaror biznes strategiya, iqtisodiy samaradorlik, integratsiya, investitsiya.

РОЛЬ ПРИНЦИПОВ ESG В ОБЕСПЕЧЕНИИ ДЛГОСРОЧНОЙ
УСТОЙЧИВОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ

Нуритдинов Бахтиёриддин Салахиддинович

Центр инновационного предпринимательства "U-ENTER"

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию роли принципов ESG в обеспечении долгосрочной устойчивости предприятий. Принципы ESG помогают обеспечить долгосрочное развитие и стабильность предприятия не только на благо общества и окружающей среды, но также обеспечить долгосрочное развитие и стабильность предприятия путем применения обязанностей в области окружающей среды, социальной сферы и управления. сфер практики хозяйственной деятельности предприятий. В статье анализируются основные элементы принципов ESG, их влияние на экономическую эффективность и репутацию предприятий, а также приводятся примеры компаний, успешно внедривших эти принципы.

Ключевые слова: принципы ESG, предприятие, экологическая и социальная ответственность, менеджмент, стратегия устойчивого бизнеса, экономическая эффективность, интеграция, инвестиции.

THE ROLE OF ESG PRINCIPLES IN ENSURING THE LONG-TERM SUSTAINABILITY OF ENTERPRISES

Nuritdinov Bahtiyoriddin Salohiddinovich
"U-ENTER" Entrepreneurship innovation center

Abstract. This article is devoted to studying the role of ESG principles in ensuring the long-term sustainability of enterprises. ESG principles help to ensure the long-term development and sustainability of the enterprise by implementing responsibilities in the areas of environmental, social and governance into the business practices of enterprises, not only to benefit society and the environment, but also to ensure the long-term development and sustainability of the enterprise. The article analyzes the main elements of ESG principles, their impact on the economic efficiency and reputation of enterprises and the examples of companies that have successfully implemented these principles.

Key words: ESG principles, enterprise, environmental and social responsibility, management, sustainable business strategy, economic efficiency, integration, investment.

Kirish.

Bugungi kunda korxonalar faqat moliyaviy muvaffaqiyatga erishish bilan cheklanmaydi. Ularning uzoq muddatli barqarorligi va ijtimoiy javobgarligi ham muhim omillardan biriga aylangan. Ayniqsa, atrof-muhit (Environmental), ijtimoiy (Social) va boshqaruv (Governance) tamoyillari — ESG — kompaniyalar uchun yangi strategik yondashuv sifatida ajralmas ahamiyat kasb etmoqda. ESG tamoyillari, nafaqat ekologik barqarorlik, balki jamiyat va boshqaruv tizimlaridagi halollik, shaffoflik va adolatga asoslangan yondashuvni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ESG tamoyillarining korxonalarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashdagi roli bugungi global iqtisodiyotda tobora muhim bo'lib bormoqda. Bu tamoyillarni qabul qilish nafaqat korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi, balki investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan yuqori baholanadigan ijtimoiy mas'uliyatli korxona imidjini yaratishga yordam beradi. ESG amaliyotlari orqali korxonalar o'z faoliyatini ekologik, ijtimoiy va boshqaruv me'yorlariga mos ravishda tashkil etish orqali, uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikka erishishi mumkin (Kotsantonis & other, 2020).

Adabiyotlar sharhi.

Ko'plab ilmiy tadqiqotlar ESG tamoyillarining korxonalar faoliyatiga qanday ta'sir qilishini o'rganishga qaratilgan. ESG tamoyillarining eng asosiy xususiyatlaridan biri — ijtimoiy, ekologik va boshqaruv jihatlari orqali tashkilotlarning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam berishidir. Shunday qilib, Eccles va Klimenko (2021) o'z maqolalarida ESG tamoyillarining korporativ boshqaruv va moliyaviy barqarorlikka bo'lgan ta'sirini tahlil qilgan va ESG tamoyillarini integratsiyalashning korxonalar uchun qanday moliyaviy foyda keltirishini ko'rsatgan. Bu tahlil ESGning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlaridan foydalanish orqali tashkilotlar o'z manfaatlarini qanday himoya qilishlari mumkinligini o'rgatadi[2]. Shuningdek, Sullivan va Mackenzie (2022) o'z tadqiqotlarida ESG ma'lumotlarining investitsiya qarorlariga qanday ta'sir qilishi, ESGni hisobga olish orqali investitsiya risklarini kamaytirish va uzoq muddatli rentabellikni ta'minlash haqida fikr yuritgan. Ular ESG ma'lumotlarini tahlil qilish orqali, korxonalar nafaqat ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari, balki barqaror o'sishni ta'minlashlari mumkinligi haqida muhim xulosalar chiqarishgan. Bir qator adabiyotlar ESG tamoyillarining korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR) bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Grewal, Hauptmann, va Serafeim (2021) ESG tamoyillarining CSR bilan qanday bog'lanishini o'rganib chiqqan. Ular ESG va CSR o'rtasidagi farqlarni va o'zaro aloqalarni aniqlashga harakat qilishgan. Ularning tahliliga ko'ra, CSR faqat ijtimoiy mas'uliyatni anglatadi, ESG esa kompaniyaning barqaror rivojlanishining barcha jihatlarini (ekologik, ijtimoiy, boshqaruv) o'z ichiga oladi. Bu

nuqtai nazardan, ESG tamoyillari nafaqat ijtimoiy mas'uliyatni o'z ichiga olgan holda, balki ekologik va boshqaruv bilan ham uyg'unlashtirilgan strategiyalarni taqdim etadi (Grewal & other, 2021).

Bir nechta ilmiy tadqiqotlar ESG tamoyillarining korxonalar moliyaviy ko'rsatkichlariga bo'lgan ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Lins, Servaes va Tamayo (2022) o'zlarining tadqiqotida ijtimoiy kapital, ishonch va ESG faoliyatining korxonalar uchun uzoq muddatli moliyaviy muvaffaqiyatga qanday ta'sir qilishini aniqlashga harakat qilishgan. Ular ESGni amal qilish orqali kompaniyalar iqtisodiy jihatdan barqaror bo'lishini ta'minlashlari mumkinligini ko'rsatgan. Harrison va Allen (2023) esa ESG tamoyillarining banklar va moliyaviy tashkilotlarga ta'sirini tahlil qilishgan. Ularning fikriga ko'ra, ESGga asoslangan investitsiyalar tez o'sayotgan va yangi moliyaviy mahsulotlar yaratishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida moliyaviy barqarorlikni oshiradi. ESG ma'lumotlarini moliyaviy baholashda qo'llash orqali investorlar tashkilotlar haqida yaxshiroq qarorlar qabul qilishlari mumkin.

O'zbekiston sharoitida ESG tamoyillarini tatbiq etishning ahamiyati, ayniqsa, sustainable investing (barqaror investitsiyalar) sohasida yuksalmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan chiqarilgan hisobotda ESG tamoyillarining moliyaviy sektorda integratsiyasi muhim jihat sifatida ko'rib chiqilgan. O'zbekistonning moliyaviy tizimi ESG tamoyillariga asoslangan investitsiya qarorlarini ko'proq qabul qilishni boshladi, chunki bunday qarorlar uzoq muddatli barqaror o'sish va iqtisodiy o'sish uchun zarur hisoblanadi.

BMT tomonidan chiqarilgan Barqaror Taraqqiyot Maqsadlari (SDGs) hisobotida ESG tamoyillarining global miqyosda qo'llanilishi va O'zbekistonda ularning amalga oshirilishi haqida so'z yuritiladi. BMT, ESG tamoyillarini amalga oshirish orqali korxonalar nafaqat ijtimoiy mas'uliyatni, balki atrof-muhitni saqlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash kabi muhim maqsadlarga ham erishishi mumkinligini ta'kidlaydi. O'zbekiston, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy sohalarda ESGga oid qo'llanmalarni joriy etishni boshladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

ESG tamoyillarining ta'sirini baholashda bir nechta asosiy nuqtalar mavjud. Tabiiy resurslarni oqilona boshqarish va ekologik zararni kamaytirish nafaqat atrof-muhitga, balki korxonaning iqtisodiy barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tabiatni asrash va karbon izini kamaytirish dasturlari:resurslarni tejash, energiya sarfini kamaytirish, atrof-muhitga zararli chiqindilarni kamaytirishdir.

Ijtimoiy mas'uliyatni bajarish orqali korxonalar xodimlarining mahsuldarligini oshiradi, mijozlarning ishonchini qozonadi va jamiyat bilan ijobiy aloqalarni o'rnatadi (Barton & Wiseman, 2014). ESG tamoyillari asosida ijtimoiy mas'uliyatning bir necha jihatlarini inobatga olish kerak:hodimlar uchun xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini yaratish, xodimlarni teng imkoniyatlar bilan ta'minlash, jamiyatni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy dasturlarda ishtirok etish.

Yaxshi boshqaruv tizimlari va to'g'ri qarorlar qabul qilish korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga xizmat qiladi. ESG tamoyillari doirasida boshqaruvning asosiy jihatlari:shaffoflik va ma'lumot almashish, axloqiy rahbarlik va yuridik me'yorlarga rioya qilish, korxonaning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni muvozanatlash imkoniyatlarini inobatga olish kerak.

Tadqiqotlarda ESG tamoyillari bilan korxonalarning uzoq muddatli barqarorligi o'rtaida bevosita bog'liqlik kuzatilmoqda. ESG tamoyillarini amalga oshirgan korxonalar:yaxshi moliyaviy natijalar ko'rsatadi, raqobatbardoshligini oshiradi, hodimlar va mijozlar orasida ishonchni kuchaytiradi. Bundan tashqari, ESG tamoyillariga rivoja qilish, qaramlikni kamaytirish va korxonaning global bozorlar bilan integratsiyasini yaxshilashga yordam beradi. Korxonalar ESG tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir nechta strategiyalarni qo'llashlari mumkin. Bu strategiyalar:

- boshqaruv tizimini yangilash: ESG tamoyillariga mos boshqaruv tuzilmasi yaratish.

- resurslarni boshqarish: energiya va tabiiy resurslarni samarali boshqarish bo'yicha innovatsion texnologiyalarni joriy etish.
- ma'lumotlarni oshkor qilish: ESG ma'lumotlarini ommaviy ravishda oshkor qilish va auditoriyaga taqdim etish.

ESG va korxonalarining moliyaviy natijalari haqida to'xtalmoqchimiz.

1-jadval

ESG tamoyillarini amalda qo'llashning korxona moliyaviy natijalariga ta'siri

| ESG elementi | Moliyaviy ta'sir | Ta'sirning asosiy sabablari |
|--------------|------------------|---|
| Atrof-muhit | Ijobiy | Resurslarni tejash va energiya samaradorligini oshirish |
| Ijtimoiy | Ijobiy | Xodimlarning motivatsiyasi va mijozlar ishonchi |
| Boshqaruv | Ijobiy | Shaffoflik va axloqiy qarorlar |

Kelajakda ESG tamoyillarining ahamiyati yanada oshadi. Iqlim o'zgarishi, resurslarning kamayishi va ijtimoiy tengsizliklar kabi global muammolar ESG tamoyillarining yanada kuchayishiga olib keladi. ESGni samarali amalga oshirgan korxonalar global bozorda raqobatbardoshligini saqlab qolishadi va uzoq muddatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritadilar. Masalan: Patagonia kompaniyasining ESG tamoyillarini amalda qo'llash va uzoq muddatli barqarorlikka ta'sirini amaliy ko'rib chiqamiz (Porter & Kramer, 2020).

Patagonia – bu atrof-muhitni saqlashga qaratilgan biznes modeli bilan tanilgan, yuqori sifatli tashqi kiyim va jihozlar ishlab chiqaruvchi kompaniya. Uning ESG tamoyillarini qanday muvaffaqiyatli amalga oshirganini tahlil qilish, kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini qanday ta'minlaganini ko'rishga yordam beradi. Patagonia o'zining biznes faoliyatini ekologik jihatdan barqaror qilishga katta e'tibor qaratadi. Kompaniya, "Earth is our only shareholder" (Yer bizning yagona aktsionerimiz) degan sloganini ilgarilaydi va barcha qarorlar atrof-muhitni asrab-avaylashga qaratilgan. Patagonia o'z fabrikalarida va distribuyutorlik tizimlarida energiya sarfini kamaytirish uchun barqaror energiya manbalaridan foydalanadi. Misol uchun, kompaniya ishlab chiqarish jarayonlarida quyosh energiyasidan foydalanadi va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha yirik loyihibor amalga oshiradi.

Patagonia, mahsulotlarining ko'p qismini qayta ishlangan materiallardan (masalan, polyester va naylon) ishlab chiqaradi. 1993 yilda u "Recycled Polyester"ni ishlab chiqarishni boshlagan birinchi kompaniyalardan biri bo'ldi. Hozirgi kunda barcha polyester mahsulotlari qayta ishlangan materiallardan tayyorlanadi. Patagonia global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda faol ishtirop etadi. Kompaniya, o'zining "1% for the Planet" dasturi orqali yiliga 1% daromadini ekologik muammolarni hal qilish uchun ajratadi. Bu dasturga ko'ra, Patagonia o'z foydasining 1%ini global ekologik tashkilotlarga yetkazib beradi. Patagonia "Worn Wear" deb nomlangan tashabbusni boshlagan, bu orqali kompaniya ishlatalgan kiyimlarni qayta sotadi, ta'mirlaydi va qayta ishlaydi. Bu tashabbus mahsulotlar umrini uzaytirish va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan.

Patagonia ijtimoiy mas'uliyatni o'zining asosiy prinsiplaridan biri sifatida qabul qiladi va xodimlar va jamiyat bilan hamkorlikda barqaror rivojlanishni ta'minlashga intiladi. Patagonia, barcha xodimlarga yuqori ish sharoitlari, teng imkoniyatlar va ijtimoiy himoya taqdim etishga katta e'tibor beradi. Kompaniya, adolatli ish haqi va yaxshi ish sharoitlarini ta'minlaydi, shu bilan birga xodimlar uchun sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy himoya dasturlarini ham taqdim etadi.

Patagonia korporativ madaniyatida tenglikni ta'minlashga jiddiy e'tibor beradi. Kompaniya, gender, irq va boshqa sohalarda tenglikni ta'minlash uchun ko'plab tashabbuslarni amalga oshirgan. Misol uchun, kompaniya rahbarligida ayollarning o'rni ortdi va Patagonia xodimlarining 40%dan ortig'i ayollardir. Patagonia o'zining biznes faoliyatini jamiyatga foyda keltiradigan faoliyatga yo'naltiradi. Kompaniya ijtimoiy loyihalarda faol ishtirop etadi, ekologik

xayriya va jamiyatni qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab tashabbuslarni amalga oshiradi. Misol uchun, Patagonia mahalliy ekologik tashkilotlarga grantlar taqdim etadi va faoliyatlarining ekologik ta'sirini kamaytirishga harakat qiladi.

Patagonia yaxshi boshqaruv tamoyillarini o'z faoliyatining asosiy qismi sifatida qabul qiladi va bu tamoyillar orqali kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Yaxshi boshqaruv kompaniyaning shaffofligini oshiradi va investorlar bilan ishonchli aloqalarni o'rnatadi. Patagonia o'z faoliyati haqida har yili kengaytirilgan hisobotlar e'lon qiladi. Kompaniya ESG tamoyillariga qanchalik rioya qilganini va bu tamoyillarni qanday amalga oshirayotganini doimiy ravishda auditoriyaga taqdim etadi. Bu shaffoflik kompaniyaning ishonchlilagini oshiradi va investorlarga korxonaning barqaror rivojlanishiga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi. Patagonia barcha faoliyatlarini axloqiy asosda amalga oshiradi. Bu kompaniyaning savdosi faqat ekologik mas'uliyatli va ijtimoiy tenglikni ta'minlaydigan mahsulotlar bilan bog'liq. Kompaniya ichki siyosat va boshqaruv tizimida shaffoflikni ta'minlash uchun doimiy ravishda ichki auditlar o'tkazadi.

Patagonia ESG tamoyillariga sodiq qolganligi sababli, kompaniya uzoq muddatli moliyaviy muvaffaqiyatga erishdi va ijtimoiy ishonchni o'ziga jalb qildi. Patagonia ESGga e'tibor berish orqali uzoq muddatli barqarorlikka erishdi. Kompaniya ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni bajarish orqali o'z brendining obro'sini oshirdi, bu esa mijozlar va investorlar orasida sodiqlikni kuchaytirdi. Patagonia, shuningdek, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor qaratadi, bu esa uning bozorda mustahkam o'rnini ta'minlaydi. Patagonia yuqori sifatli, barqaror mahsulotlar ishlab chiqarish orqali o'zining raqobatbardoshligini oshirdi. ESGga sodiq qolganligi kompaniyaga yangi mijozlar va investorlarni jalb qildi, bu esa kompaniyaning bozordagi o'rnini mustahkamladi. Patagonia ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni amalga oshirish orqali jamiyatga katta ta'sir ko'rsatdi. Kompaniya ekologik tashabbuslar orqali atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga erishdi va xodimlari uchun yaxshi ish sharoitlarini yaratdi (Harrison & Allen, 2023).

Patagonia kompaniyasining misolida ESG tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning korxonaning uzoq muddatli barqarorligi va muvaffaqiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi aniq ko'rindi. Atrof-muhitni saqlash, ijtimoiy mas'uliyatni bajarish va axloqiy boshqaruv tamoyillariga e'tibor qaratish, Patagonia'ni faqat moliyaviy muvaffaqiyatga olib kelmay, balki uni global miqyosda ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan kompaniya sifatida ajratib turadi. Kompaniya ESG tamoyillarini amalga oshirish orqali nafaqat o'zining moliyaviy va ijtimoiy natijalarini yaxshiladi, balki boshqa kompaniyalar uchun ham yaxshi boshqaruvning va mas'uliyatli biznesning namunasini yaratdi (Lins & other, 2022).

O'zbekiston misolida ESG tamoyillarini amalda qo'llash: "UzAuto Motors" kompaniyasini ham tahlil qilamiz. O'zbekiston iqtisodiyotida ESG tamoyillariga e'tibor qaratishning ahamiyati ortib bormoqda. O'zbekistonning yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalaridan biri bo'lgan UzAuto Motors (avvalgi "GM Uzbekistan") ESG tamoyillarini amalga oshirishda o'zining muvaffaqiyatli tajribasini ko'rsatmoqda (Shomurodov & Karimov, 2021).

UzAuto Motors atrof-muhitni asrash va ekologik izni kamaytirishga katta e'tibor beradi. Kompaniya avtomobil ishlab chiqarish jarayonida ekologik jihatlarni hisobga olgan holda bir qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. UzAuto Motors o'zining ishlab chiqarish jarayonida chiqindilarni kamaytirish va resurslarni qayta ishlashga katta e'tibor qaratadi. Kompaniya chiqindilarni to'g'ri boshqarish, ularni qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo'yicha ilg'or texnologiyalarni joriy etgan. Masalan, avtomobilning chiqindilarini kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlaridan chiqadigan chiqindilarni qayta ishlash uchun alohida tizimlar yaratildi.

UzAuto Motors ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llaydi. Elektr energiyasini samarali ishlatish, ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish, va chiqindilarning miqdorini kamaytirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqilgan. Bu

nafaqat atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi, balki kompaniyaning ishlab chiqarish xarajatlarini ham pasaytiradi (Abdullayev, 2023).

UzAuto Motors bugungi kunda elektromobillar ishlab chiqarish bo'yicha faoliyatni yo'lga qo'yan. Kompaniya kelajakda elektromobillar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali atrof-muhitga zararli gaz chiqindilarini kamaytirishga yordam beradi. UzAuto Motors ijtimoiy mas'uliyatni bajarish, xodimlarning farovonligini ta'minlash va jamiyat bilan aloqalarni mustahkamlashga katta e'tibor qaratadi. Kompaniya bu - sohada bir nechta ijobiy tashabbuslarni amalga oshirgan. UzAuto Motors xodimlarning xavfsizligi, sog'ligi va farovonligi uchun zarur choralarini ko'rghan. Ish joylarida xavfsizlikni oshirish, xodimlarga yuqori darajada tibbiy xizmat ko'rsatish va ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun turli tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Kompaniya shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish uchun treninglar va ta'lif dasturlarini tashkil etadi.

Kompaniyada gender tengligi va xodimlar o'rtasidagi diversifikatsiya bo'yicha maxsus siyosatlar ishlab chiqilgan. Ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish, xodimlar o'rtasida tenglikni ta'minlash va jamiyatda ijtimoiy tenglikni qo'llab-quvvatlash kompaniyaning ijtimoiy mas'uliyat doirasidagi asosiy tamoyillaridan biridir. UzAuto Motors, o'z faoliyatini faqat foyda olishga emas, balki jamiyatga ham xizmat qilishga qaratadi. Kompaniya mahalliy iqtisodiyotga hissa qo'shish, yoshlarni ishga joylashtirish va ta'lif muassasalariga yordam berish uchun bir qator ijtimoiy dasturlarni amalga oshiradi. Jamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha uzlusiz tashabbuslar olib borilmoqda.

Boshqaruv tamoyillari UzAuto Motorsning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga asos bo'ladi. Kompaniya o'z boshqaruv tizimini shaffof, axloqiy va samarali qilishga katta e'tibor qaratadi. UzAuto Motors kompaniyasi o'z faoliyati haqida to'liq va shaffof hisobotlar taqdim etadi. Kompaniya ichki boshqaruv tizimida yuqori darajadagi shaffoflikni ta'minlaydi, bu esa investorlar, xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan ishonchli aloqalarni o'rnatadi. UzAuto Motors o'zining barcha biznes faoliyatlarida axloqiy me'yorlarga amal qiladi. Boshqaruvda korrupsiyaga qarshi kurashish, mehnat huquqlarini himoya qilish va mijozlar bilan adolatli munosabatlar o'rnatish kompaniyaning asosiy qadriyatlardan biridir.

Kompaniya uzoq muddatli strategik rejallashtirish va barqaror o'sishga qaratilgan boshqaruvni amalga oshiradi. ESG tamoyillariga e'tibor berish orqali UzAuto Motors global bozorlarda raqobatbardoshligini oshiradi va barqaror rivojlanish yo'lida muhim qadamlar qo'yadi. UzAuto Motors ESG tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning ijtimoiy natijalarini ko'rghan. Kompaniya nafaqat o'zining ekologik va ijtimoiy mas'uliyatlarini bajaradi, balki bu amaliyotlar kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ham ta'minlaydi.

ESG tamoyillarini amalga oshirish orqali UzAuto Motors o'zining raqobatbardoshligini oshirdi. Kompaniya ekologik mas'uliyatni o'z faoliyatiga joriy qilgan holda global avtomobil bozorida yangi imkoniyatlarga ega bo'ldi. Yangi texnologiyalar va barqaror mahsulotlar ishlab chiqarish orqali kompaniya xarajatlarni optimallashtirib, foyda olishga erishdi.

UzAuto Motors ESGga sodiqligini ko'rsatgan holda o'z brendini yanada mustahkamladi. Jamiyat va mijozlar orasida ijtimoiy mas'uliyatli kompaniya sifatida tanildi, bu esa kompaniyaning bozorga bo'lgan sodiqligini oshirdi. ESG tamoyillariga rioya qilish, UzAuto Motorsning investorlar va xodimlar orasida ishonchini oshirdi. Bu kompaniya uchun yangi investitsiyalarni jalb qilish va yuqori malakali xodimlarni jalb etishga yordam beradi (Jumaniyozov, Tursunov, 2023).

UzAuto Motorsning ESG tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirishi kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Atrof-muhitni asrash, ijtimoiy mas'uliyatni bajarish va yaxshi boshqaruv tizimini yaratish orqali kompaniya global bozorda o'z o'rnini mustahkamladi va raqobatbardoshligini oshirdi. ESG tamoyillariga rioya qilish UzAuto Motorsning iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlab, kompaniyaning kelajakdag'i rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Xulosa va takliflar.

ESG tamoyillarining korxonalarining uzoq muddatli barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat atrof-muhitga, balki ijtimoiy va boshqaruv jihatlariga ham ta'sir ko'rsatadi, bu esa korxonaning iqtisodiy barqarorligi va muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam beradi. ESG tamoyillarini to'g'ri amalga oshirgan korxonalar uzoq muddatda o'z faoliyatlarini muvaffaqiyatli davom ettiradilar.

Tavsiyalar:

- ESG tamoyillarini amalga oshirishni korxonaning strategik rejasiga kiritish.
- ESG ma'lumotlarini shaffof tarzda taqdim etish va monitoring qilish.
- ESG strategiyalarini global va lokal bozor sharoitlariga moslashtirish.

Tahlil va ma'lumotlar korxonalarning strategik qarorlarini qabul qilishda yordam beradi. Bugungi kunda korxonalar faqat moliyaviy natijalar va foyda olishga emas, balki atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv tamoyillari (ESG)ga ham e'tibor berishga majbur. ESG tamoyillari korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

ESG (Atrof-muhit, Ijtimoiy va boshqaruv) tamoyillari korxonalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bugungi global biznes muhitida, korxonalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik, ijtimoiy va boshqaruv sohalaridagi mas'uliyatlarni ham hisobga olishlari kerak. ESG tamoyillari korxonalarga yanada barqaror rivojlanishga erishishda yordam beradi, bu esa uzoq muddatli moliyaviy muvaffaqiyat va jamoatchilikning ishonchiga olib keladi. ESG strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali korxonalar nafaqat jamiyatga foyda keltiradi, balki o'zlarining raqobatbardoshligini ham oshiradi (Xolmatov, 2023). Shu bilan birga, bu tamoyillar korxonalarni ekologik xavf-xatarlar va ijtimoiy notinchliklardan himoya qilib, barqaror iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan mustahkam poydevor yaratadi. Shunday qilib, ESG tamoyillari korxonalarning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlash va dunyo bo'ylab ijtimoiy-eko-sistemani yaxshilash uchun zarur vositadir.

Adabiyotlar/ Йумерамып/ Reference:

Abdullayev I. (2023). O'zbekistonda ekologik boshqaruv va ESG tamoyillari. O'zbekiston ekologiya va barqaror rivojlanish jurnali, 8(4), 22-35.

Barton D., & Wiseman M. (2014). Focusing Capital on the Long Term. Harvard Business Review, 92(2), 44-52.

Eccles R.G., & Klimenko S. (2021). The Investor Revolution: ESG's Power Shift in Global Finance. Harvard Business Review, 99(5), 68-77.

Grewal J., Hauptmann C., & Serafeim G. (2021). Materiality in Corporate Social Responsibility: How Does it Relate to ESG Integration? Business & Society, 60(4), 765-795.

Harrison, J., & Allen, T. (2023). Corporate Sustainability and ESG: A Critical Review. Corporate Governance: An International Review, 31(2), 265-280.

Jumaniyozov B. & Tursunov R. (2023). Korxonalar uchun ESG tamoyillarini joriy qilish: O'zbekistonda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar va istiqbollar. Iqtisodiy nazariya va amaliyot jurnali, 4(2), 57-70.

Kotsantonis S., Pinney C., & Serafeim G. (2020). ESG Integration in Investment Management: Myths and Realities. Journal of Applied Corporate Finance, 32(3), 10-16.

Lins K.V., Servaes H., & Tamayo A. (2022). Social Capital, Trust, and ESG Performance. Journal of Financial Economics, 145(2), 430-450.

Porter, M. E., & Kramer, M. R. (2020). Creating Shared Value: A New Approach to Business and Social Progress. Harvard Business Review, 98(3), 62-71.

Shomurodov, S.A., & Karimov, A.S. (2021). Korporativ boshqaruv va barqaror rivojlanish: O'zbekistondagi muammolar va imkoniyatlar. O'zbekiston iqtisodiyoti va bank tizimi jurnali, 3(3), 45-58.

Sullivan, R., & Mackenzie, C. (2022). The Role of ESG Data in Investment Decision Making: Current Trends and Future Challenges. Journal of Sustainable Finance & Investment, 12(1), 85-105.

Xolmatov A.M. (2023). O'zbekistonda ijtimoiy mas'uliyat va ESG tamoyillarini integratsiyalash: Nazariy va amaliy jihatlar. Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 12(1), 33-46.